DAVLAT BOSHQARUVIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH SIYOSATINING TARIXIY ILDIZLARI: O ‘ZBEK MODELI, SHARQ MEROSI

Pardaxodjayeva Inobat Saydiazizozvna
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21268392

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirish siyosatining tarixiy ildizlari, jumladan o‘zbek davlatchiligi tajribasi va Sharq merosi keng ko‘lamda tahlil qilingan. Forobiy, Nizomulmulk va Amir Temur kabi buyuk mutafakkirlar va davlat arboblarining inson kapitali rivojiga oid qarashlari va amaliy faoliyati o‘rganilgan. Ushbu tarixiy sintez orqali “O‘zbek modeli”ning zamonaviy davlat boshqaruvidagi ahamiyati ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: inson kapitali, davlat boshqaruvi, Sharq merosi, O‘zbek modeli, meritokratiya, Forobiy, Nizomulmulk, Amir Temur, kadrlar siyosati, davlatchilik an’analari.

Abstract: This article analyzes the historical roots of human capital development policy in public administration, including the experience of Uzbek statehood and Eastern heritage. The views and practical activities of great thinkers and statesmen such as al-Farabi, Nizamulmulk and Amir Timur regarding human capital development are studied. Through this historical synthesis, the significance of the "Uzbek model" in modern public administration is revealed.

Kirish. Muammoning dolzarbligi va nazariy asoslari

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyotda davlatlar va kompaniyalarning eng asosiy boyligi tabiiy resurslar emas, balki bevosita inson kapitali bo‘lib qolmoqda. **Inson kapitali** - bu jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bilim, ko‘nikma, sog‘liq va ijodiy salohiyatning yaxlit majmuasidir. Hozirgi raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asrida intellektual salohiyatga investitsiya kiritish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, malakali va kreativ fikrlaydigan kadrlar barqaror iqtisodiy o‘sishni hamda innovatsiyalarni ta’minlaydigan yagona yetakchi kuchdir. Shuning uchun ham inson omilini rivojlantirish zamonaviy dunyoda strategik ustuvor vazifaga aylanib ulgurdi.

“Inson kapitali” atamasiga e’tibor qaratsak, zamonaviy iqtisodiyot fanida “inson kapitali” tushunchasini ilmiy jihatdan asoslab bergan Teodor Shuls (1961) va Geri Bekker (1964) [1], [2] Nobel mukofoti sovrindorlari bo‘ldi. Shuls ta’limga sarflangan xarajatlarni investitsiya sifatida ko‘rishni asoslab bergan bo‘lsa, Bekker bu g‘oyani to‘liq nazariy tizimga aylantirdi. Biroq, ona zaminimizdan yetishib chiqqan bir qator ajdodlarimiz ming yillar avval, ya’ni IX–XI asrlardayoq o‘z fundamental asarlarida nazariy va amaliy tadqiqotlar misolida mazkur masalaga batafsil to‘xtalib, insonning eng muhim xazina ekanligini ta’kidlab o‘tgan edilar.

Boshqaruvda G‘arb an’analarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirish natijasida milliy qadriyatlar, Sharq merosi “Temur tuzuklari”, Forobiyning “Fozil odamlar shahri” g‘oyalari va jamoatchilik bilan ishlashning an’anaviy usullaridan uzilish kuzatilmoqda. Ushbu maqolada ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga Vatanimiz zaminida shakllangan inson kapitali tushunchasining tarixiy ildizlarini ilmiy asosda tadqiq qilishga urinish qilinadi.

Inson kapitaliga e’tiborning o‘tmishi bizga ko‘pincha tasavvur qilinganidan ham chuqur va uzoqroq. IX–XV asrlarda yashagan Markaziy Osiyo mutafakkirlari -Forobiy, Nizomulmulk, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Amir Temur - davlat boshqaruvida bilimli va

axloqli insonni **“Estaforsiz sarmoya”**(“Istifodasiz sarmoya” (yoki estaforsiz sarmoya) — Amir Temur tomonidan ishlatilgan tushuncha bo'lib, bugungi zamonaviy tilda “qo'shimcha xarajat talab qilmaydigan, doimiy foyda keltiruvchi inson kapitali” deganidir. Xarajatsiz boylik: Oltin va mulkni saqlash, qo'riqlash uchun mablag' sarflanadi. Insonning ilmi va axloqini asrash uchun esa xarajat shart emas — u tayyor boylikdir. Isrofsiz boshqaruv: Bilimli va insofli mutaxassis davlat mulkini o'g'irlamaydi, isrof qilmaydi va to'g'ri qarorlar bilan xazinani yanada ko'paytiradi. Inqirozdan chiquvchi kuch: Har qanday og'ir siyosiy yoki iqtisodiy vaziyatda moddiy boylik emas, aynan inson aqli va strategiyasi davlatni qutqarib qoladi. Landa-lunda xulosa: Amir Temur moddiy boylik tugar chorasiz ekanini, davlatning eng o'lmas va tejamkor sarmoyasi esa ilm va ma'naviyatga ega kadrlar ekanini nazarda tutgan.) deb baholagan (“Tuzuki Temuriy”) [3] Bu g‘oyalar zamonaviy inson kapitali nazariyasidan yuz yillar oldin shakllangan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida davlat fuqarolik xizmatchilarining inson kapitali - ularning professional bilimlari, boshqaruv ko‘nikmalari va ma’naviy-intellektual salohiyati tizim samaradorligini belgilovchi bosh omilga aylandi. Biroq amaliyotda boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ularning mahoratini sharqona boshqaruv an’analari hamda milliy o‘zlik **“O‘zbek modeli”** negizida tizimli rivojlantirish mexanizmi hali to‘liq shakllanmagan.

Adabiyotlar tahlili: uch buyuk siymo timsolida

Sharq renessansi davrlari davlat boshqaruvida inson omiliga, ilm-fanga investitsiya kiritishning eng yorqin davrlaridir. IX asrda Abbosiylar xalifaligi o‘zining madaniy gullash cho‘qqisiga chiqayotgan edi. Bag‘doddagi Bayt-ul-Hikma (Donishmandlik uyi) dunyo fanining markaziga aylanib, Yunon, Fors va Hind manbalarini arabchaga o‘girish bilan band edi. Ushbu davrda davlat va ilm-fan o‘rtasidagi chegara juda ingichka edi: olimlar vazirlik qildi, vazirlar kitob yozdi. Shu uyg‘unlik Sharq renessansini noyob fenomenga aylantirdi.

FAROBIY 873–950 Nazariyotchi	**NIZOMULMULK 1018–1092** Institutchi	**AMIR TEMUR 1336–1405** Amaliyotchi
Fozil shahar - axloqiy va intellektual uyg‘unlik davlati	Nizomiya madrasalari - davlat moliyasidan ta’minlangan ta’lim tizimi	“Temur tuzuklari”- amaliy rahbarlik kodeksi
Rahbarda 12 tug‘ma + 6 orttirilgan xislat bo‘lishi shart	Meritokratiya: mansab layoqat va xizmatga qarab beriladi	“Brain Gain”: olimlarni Samarqandga to‘plash strategiyasi
G‘oya	**Tizim**	**Amal**

Ushbu uch siymo bir-birini to‘ldiradi: birinchi -g‘oya, ikkinchi -tizim, uchinchi -amal

1. Abu Nasr Forobiy (873–950) — Nazariy asos

Forobiyning asosiy davlatchilik konsepsiyasi - “Fozil shahar” (al-Madina al-fozila). Bu asarda u ideal davlatning tuzilmasini batafsil tasvirlaydi. Uning uchun davlat faqat hudud va aholi to‘plami emas-u axloqiy va intellektual uyg‘unlik zaminida qurilgan organizmdir.

"Fozil shahar organik jismga o‘xshaydi: uning a’zolari o‘zaro yordamlashib, butun jismning sog‘lig‘ini ta’minlaydi." **- Forobiy, “Fozil shahar aholisining qarashlari”** [4]

Rahbar masalasida Forobiy qat’iy: davlatni faylasuf-podshogina boshqara oladi. Chunki u aql, adolat va ilm orqali jamiyatni haq yo‘lga boshlay oladi. Hokimiyat manbai -kuch yoki nasl emas, balki bilim va fazilatdir. Forobiy davlat rahbarining mukammal inson kapitaliga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. U rahbar uchun **12 ta tug‘ma** (sog‘lomlik, o‘tkir zehn, kuchli xotira, haqgo‘ylik) va 6 ta orttirilgan (donolik, notiqlik, harbiy mahorat) xislatni belgilab bergan. Bu bugungi kun rahbar kadrlarining yumshoq va qattiq ko‘nikmalariga to‘liq mos keladi.

Forobiyning “Ilmlar tasnifi” asari [5] o‘rta asrlar Sharq va G‘arb universitetlari uchun asosiy darslik bo‘lib xizmat qildi. U bilimni tizimlashtirib, mantiq, riyoziyot, tabiiy fan, tibbiyot, musiqa va siyosatni uyg‘un doirada ko‘rsatdi. Ushbu tizimlashtirish davlat uchun amaliy ahamiyat kasb etdi: hukmdor yoki amaldor qaysi sohalarni o‘rganishi kerak -buni Forobiy aniq belgilab bergan. Forobiyning eng katta merosi “**davlat va ilm bir-biridan ajralmas**” [6] degan g‘oyadir. Bu g‘oya keyingi avlodlar uchun poydevor bo‘ldi: Ibn Sino tibbiyot sohasida, Ibn Rushd falsafada, Nizomulmulk esa davlatchilikda Forobiy maktabining vorisi bo‘ldi.

2. Nizomulmulk (1018–1092) -Institutchi

Buyuk vazir Nizomulmulk sharqona **meritokratiya** (loyiqlik va iqtidorga qarab ishga olish) va tizimli ta’limni davlat boshqaruviga joriy etgan ulkan islohotchidir. U Saljuqiylarning Alp Arslon va Malikshoh hukmdorlari ostida 30 yildan ortiq bosh vazirlik qildi va amalda davlatni boshqardi. Uning nufuzi shu darajada katta ediki, zamondoshlari uni “Xoja” deb atagan.

Malikshohning topshirig‘iga ko‘ra Nizomulmulk yozgan “Siyosatnoma”asari davlat boshqaruvining ensiklopediyasidir. 50 bobdan iborat bu asar rahbarlik san’ati, amaldor xulqi, adolat tizimi, razvedka xizmati, soliq siyosati va maorif masalalarini batafsil yoritadi.

"Podshoh har kuni ikki vaqt mazlumlarni tinglashga ajratishi lozim - shu paytda o‘rtada biron vositachi bo‘lmasligi kerak." **-Nizomulmulk, “Siyosatnoma”** [7]

Nizomulmulkning eng buyuk va davomiy merosi bu **Nizomiya madrasalari** [7]tarmog‘idir. 1065–1067 yillarda Bag‘dodda ochilgan birinchi Nizomiya madrasasi tez orada butun Saljuqiylar davlatiga tarqaldi: [8] Nishopur, Balx, Harot, Isfahon va boshqa katta shaharlarda shunday madrasalar barpo etildi. Bu madrasalar davlat moliyasidan to‘liq ta’minlangan, o‘qituvchilarga maosh beriladigan, talabalarga stipendiya to‘lanadigan birinchi institutlashgan ta’lim tizimi bo‘ldi -O‘rta asrlar G‘arbida bunday tizim ancha keyinroq paydo bo‘ldi.

Nizomulmulk uchun mansabni nasl yoki boylikka ko‘ra berish davlat uchun xavfli. “Siyosatnoma”da [7] u bir necha bor ta’kidlaydi: amaldorlar o‘z layoqati va yaxshi xizmati uchun mukofotlanishi, yomon xizmati uchun jazolanishi lozim. Diniy, etnik yoki qabila asosida mansab tarqatish emas -bilim, tajriba va sadoqat asosida. Bu Nizomulmulkning asosiy islohot g‘oyasi va meritokratiya tamoyilining tarixiy ildizi edi.

3. Amir Temur (1336–1405) -Amaliyotchi lider

Amir Temur -tarixning eng kuchli harbiy va siyosiy strateglaridan biri. U oddiy barlos begi oilasidan chiqib, 35 yil ichida Movarounnahrdan Hindistongacha cho‘zilgan ulkan imperiyani barpo etdi. Ammo Temurni boshqa istilochilardan ajratib turadigan narsa- u fath etgan yerlarni vayron qilib ketmadi, aksincha, ularning eng yaxshi kuchini Samarqandga jalb etdi.

"Taxtni to‘rt ustun ushlaydi: ulamolar, amaldorlar, lashkarboshilar va savdogarlar. Ushbu to‘rt toifaning hammasi teng kuchli bo‘lsa, davlat barqaror." **-Amir Temur, “Temur tuzuklari”** [1]

Temur insonlarni kelib chiqis hi yoki nasl-nasabiga qarab emas, balki ularning shaxsiy qobiliyati, botirligi va zakovatiga qarab lavozimlarga tayinlagan: «Vazirlik lavozimiga kadr tanlashda 4 ta xislat: asllik(or-nomus), aql-idrok, adolat va tadbirkorlik tekshiriladi”. “Temur tuzuklari” [1] asari Temurning shaxsiy boshqaruv tajribasi va falsafasini mujassamlashtiradi.

Temurning “Brain Gain” (**Aql oqimi)** strategiyasi o‘z davrida dunyodagi eng yirik inson kapitalining bir joyda konsentratsiyalanishini ta’minladi: zabt etilgan hududlardan eng yaxshi olimlar, me’morlar, muhandislar va hunarmandlar Samarqandga to‘plandi. Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo 1403–1406 yillardagi sayohatnomasida shaharning ulug‘vorligi haqida hayratlanib yozgan. [8]

Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek (1394–1449) bobosining ilm-fanga bergan e’tiborini astronomiya sohasida rivojlantirdi. 1420-yillarda Samarqandda qurilgan observatoriya Ulug‘bek va uning hamkorlari tuzgan “Ziji Ko‘ragoniy” yulduzlar katalogi Yevropa astronomlari [14] tomonidan XVIII asrgacha **muqoyasasiz standart deb** tan olindi. Shu ma’noda Temur va Ulug‘bek merosi -Forobiyning nazariy orzusining ro‘yobga chiqishidir.

Muhokama: G‘arb va sharq sintezi-“O‘zbek modeli”

G‘arb iqtisodiy maktablarida inson kapitali -bu iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi bilim, ko‘nikma, salomatlik va motivatsiya yig‘indisi sifatida qaraladi. Biroq Sharq davlatchilik an’analarida, xususan O‘zbekiston zaminida, inson kapitali faqat iqtisodiy resurs emas, u ma’naviy-axloqiy komillik, adolat mezonlari va ijtimoiy mas’uliyat kontekstida shakllangan.

Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasida kadrlar siyosati muhim o‘rin tutadi. 2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-788) [12] davlat xizmatiga qabul qilishning ochiqlik va tanlov asosidagi mexanizmlarini mustahkamladi. 2025-yilgi Prezident farmonida esa kadrlarni ochiq va adolatli tanlovlar asosida jalb qilish, Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilinganlar uchun maxsus kurslar joriy etish vazifalari belgilandi.

Sharq mutafakkirlarining merosi bugungi davlat boshqaruvi uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega. Forobiyning “rahbar 12+6 xislatga ega bo‘lishi kerak» degan ta’limoti zamonaviy kompetensiya-asosli yondashuv bilan uyg‘un. Nizomulmulkning meritokratiya tamoyili - loyiqlik asosida mansab tarqatish -OECD [13] davlatchilik standartlariga mos. Temurning “Brain Gain” strategiyasi esa bugungi **“Iste’dodlarni saqlash” va “Iste’dodlarni jalb qilish”** siyosatlarining tarixiy pretsedenti hisoblanadi.

Natijalar va amaliy takliflar

Tarixiy tahlil va zamonaviy davlat boshqaruvi ehtiyojlaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi o‘quv dasturlariga “Sharq davlatchilik an’analari va inson kapitali” modulini joriy etish - Forobiy, Nizomulmulk va Temur merosini zamonaviy menejment nazariyalari bilan sintezlagan holda.

Meritokratiya tamoyilini normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq mustahkamlash: mansabga tayinlashda Nizomulmulk tamoyiliga-layoqat, tajriba va sadoqat -asoslangan ko‘rsatkichlarni aniqlash.

“O‘zbek modeli” asosida kadrlar zaxirasi tizimini shakllantirish: Temurning “Brain Gain” strategiyasidan ilhomlanib, xorijda tahsil olgan vatandoshlarni davlat boshqaruviga jalb etish dasturini ishlab chiqish.

Oliy ta’lim muassasalari va davlat organlari o‘rtasida “**ustoz-shogird**” modeli asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish-Nizomulmulkning madrasalar tizimidan ilhomlangan zamonaviy dastur

Xulosa

O‘zbekiston davlat boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirish siyosati aslida yangi ijod emas -uning tarixiy ildizlari IX–XV asrlardagi buyuk Sharq renessansiga borib taqaladi. Forobiyning nazariy poydevori, Nizomulmulkning institutsional tizimi va Amir Temurning amaliy strategiyasi - uch buyuk siymoning merosi yagona g‘oyaviy zanjirni tashkil etadi: davlatni mukammal insongina boshqara oladi.

Bu tarixiy meros zamonaviy “**O‘zbek modeli”**ning konseptual poydevori bo‘lishi mumkin. G‘arb iqtisodiy tamoyillarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirishning o‘rniga, vatanimiz zaminida shakllangan meritokratiya, ma’naviy-axloqiy rahbarlik va institutsional ta’lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirgan holda rivojlantirish -bugungi davlat boshqaruvi reformasining strategik yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta’minlash va yangi avlod rahbarlarini shakllantirish - bularning barchasi ajdodlarimiz orzu qilgan va amalda ko‘rsatgan “fozil shahar” g‘oyasini XXI asr sharoitida ro‘yobga chiqarishdan boshqa narsa emas. Sharq renessansining bu merosi O‘zbekiston uchun nafaqat tarixiy faxr manbai, balki zamonaviy davlat qurilishining strategik resursidir.

Davlat boshqaruvi tizimida inson kapitalini rivojlantirish va modernizatsiya qilish jarayonlari O‘zbekiston uchun yangi fenomen emas. Yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk va Amir Temur kabi buyuk mutafakkir va davlat arboblari o‘z davridayoq boshqaruv tizimini sof bilim, yuksak ma’rifat, axloq va meritokratiya tamoyillari asosida qurish g‘oyasini nafaqat ilgari surishgan, balki amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq eta olishgan. Bugungi kunda Zamonaviy O‘zbekiston ushbu bebaho tarixiy merosni raqamli texnologiyalar va institutsional mexanizmlar bilan boyitgan holda, sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega.

Meritokratik kirish va EQ-audit tizimi boshqaruvga faqatgina professional, xalq bilan tillasha oladigan va sodiq kadrlar kelishini ta’minlaydi;

“Sharq boshqaruv merosi” va “Global o‘zbek intellekti” (Brain Gain) dasturlari-milliy o‘zlikni anglagan holda eng ilg‘or global tajribalarni tizimga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. - 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17.
2. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: NBER, 1964. — 187 p.
3. Temur tuzuklari. XIV asr. O‘zbekcha nashr: Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991. — 188 b.
4. Forobiy. Fozil shahar aholisining qarashlari (Mabodi’ oro ahl al-madina al-fozila). - Bag‘dod, X asr. O‘zbekcha nashr: Toshkent: O‘zbekiston, 1993. — B. 45–52.
5. Forobiy. Ilmlar tasnifi haqida (Ihso al-ulum). — Bag‘dod, IX asr. Rus. tarj.: Izbranniye traktat. — Alma-Ata, 1970. — B. 111.
6. Forobiy. Baxt-saodatga erishish haqida risola. -O‘zbekiston FA nashri, Toshkent, 1980. — B. 23.
7. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyor ul-muluk). — Nishopur, 1091. O‘zb. tarj.: Toshkent: O‘qituvchi, 1997. — B. 7, 38.
8. Klavixo, Ryuy Gonsales de. Samarqandga sayohat (Embajada a Tamorlan). — Madrid, 1406. // Rus. tarj.: Moskva: Nauka, 1990. -264 b.
9. Makdisi G. The Rise of Colleges: Institutions of Learning in Islam and the West. — Edinburgh University Press, 1981. — P. 27–32.
10. Bosworth C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran. — Edinburgh, 1963. — P. 88.
11. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 11 jild. — Toshkent, 2000–2005.
12. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ–788, 2022-yil, 8-avgust. https://lex.uz/docs/-6145972.
13. OECD. Government at a Glance 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023.
14. Sayili A. The Observatory in Islam. Ankara, 1960